SCIENCE BOX
BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI
*Jild: 04, Nashr: 12| Dec – 2024 ISSN: 2181-2616*

# OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL QILISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING AFZLLIKLARI

***Yakubova Yulduz***
*Xalqaro Nordic Universiteti*
*Talim muassasalarining boshqaruvi*
*Magistranti*
*+9988953409*

***Annotatsiya.*** *Maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va masofaviy ta'lim, online ta'lim berish metodlari, ularning afzalliklari haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *masofaviy ta'lim, Massive Open Online Courses, axborot-kommunikatsiya, plotforma.*

## KIRISH

Oliy ta'lim tizimi o'zgaruvchan va murakkab jamiyat sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil qilish va boshqarish usullari muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar, talabalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro aloqalar ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.Ta'lim tarbiya jarayonida boshqaruv usullari akademik bilimlar va talabalar shaxsining rivjlanishini ham ta'minlaydi. Kelajakda oliy ta'lim tizimida zamonaviy talablar va innovatsiyalarni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish zarur.[1]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xorijiy va o'zbek adabiyotlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish usullari tahlil qilinganida masofaviy ta'limning ustuvor tomonlari o'rganilganligini kuzatishimiz mumkin. Ta'lim dasturlari va o'quv rejalarini ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. A.M.Abdurazzaqov ta'lim dasturlarini takomillashtirish zaruruligi haqida uqtiradi,talabalar o'rtasida faol muloqot va muhokama olib boradigan interaktiv metodlar ta'lim jarayonini jonlantiradi deb hisoblaydi. A.Sayfuddinov esa O'zbekiston sharoitida masofaviy ta'limning imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilgan holda zamonaviy texnologiyalar yordamida masofaviy ta'limning imkoniyatlari ta'lim tizimini rivojlantirishda jarayonni yanada qulaylashtiradi deb ta'kidlagan.

O'rganilgan tadqiqotlargatayanib Oliy ta'limda aniq maqsadlar belgilanishi zarurligi, bu maqsadlar talabalarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashga yo'naltirilishi haqidagi fikrlarimiz shakllandi. Shuningdek xorijiy adabiyotlarda keltirilgan quyidagi tahlilarni olaylik, masalan, Ta'lim dasturlari va o'quv rejalari ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

O'qituvchilar ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi va ularning malakasi va pedagogik ko'nikmalari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi degan fikrlar ham ilgari surilganligiga guvoh bo'lamiz. Darling Hammondning asarlarida o'qituvchilarning professional rivojlanishi muhimligi ta'kidlanadi

Ta'lim jarayonini samarali boshqarish uchun muntazam monitoring va baholash muhimdir. Xorijiy tadqiqotlarda, talabalarni baholashda turli xil uslublardan foydalanish zarurligi Black Wiliam tomonidan ochib berilganligi ko'rsatilgan

O'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirish ta'lim sifatini yaxshilaydi deydi u. [2]

Hattiening o'rganishlariga ko'ra talabalar ta'lim jarayonida faol qatnashishlari muhimdir. Ularning fikr va mulohazalari ta'lim sifatini oshirishda yordam beradi shuningdek masofaviy ta'lim jarayonida bu juda muhim omil ekanligini anglatadi. Kelajakda zamonaviy talablar va yangi texnologiyalarni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish zarurati zamon talabi ekanligi o'z ifodasini topmoqda

**MUHOKAMA**

Masofaviy ta'lim (MT) - bu o`qituvchi va o`quvchi bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli, informatsion texnologiyalardan fodalanilgan tarzdagi talim turi

Bu ta'lim turining bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lim tashkil qilinishiga sabab bo`lgan vaziyatlari bilan farqlanadi

- Geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi);
- Mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi;  transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi;
- Masofaviy ta"lim uchun mutaxassislar mavjudligi;
- Ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi;

Bugun O'zbekistonning ta'lim tizimidagi mavjud muammolar va ularga innovatsion yechimlar taklif etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnogiya imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qarori **"Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizomi huquiy asos sifatida yo'l xaritasini belgilab berdi.[3]**

Nizomda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabaning turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish;

masofaviy ta'lim shakli joriy etish mumkin bo'lmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilash;

masofaviy ta’lim bo‘yicha qabul parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalarida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan kelishilgan holda bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik (idora), moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida tegishli oliy ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi, nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida nodavlat oliy ta’lim tashkiloti muassisi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlash hamda ta’lim jarayonini to‘lov-kontrakt asosida amalga oshirish;

Masofaviy ta’lim shaklini joriy etgan oliy ta’lim tashkilotlari, zarur hollarda, talabalarga qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida ular istiqomat qiluvchi hududlarda faoliyat yurituvchi oliy ta’lim tashkilotlari, axborot-resurs markazlari, o‘quv markazlari bilan o‘zaro kelishgan holda ularning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidan talabalar foydalanishi uchun sharoit yaratish choralarini ko‘rish kabi mezonlar belgilab qo’yilgan.[4].

**NATIJALAR**

2022/2023 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining masofaviy ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlari 3410 tani, shundan 2410 nafar talaba o'zbek tilida, 1000 nafari rus tilida tahsil olishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktyabrdagi “Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 559-son qarori bilan masofaviy ta'limning maqsadi, tamoyillari va vazifalari belgilab berildi.

Masofaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablar, masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minotga qo'yiladigan talablar, masofaviy ta'limga talabalarni qabul qilish va o'quv jarayonini tashkil qilish, masofaviy ta'lim sifati monitoringi tartibi belgilb berildi. Shu jihatdan Oliy ta'limnBundan tashqari, masofaviy ta'lim sifati va undagi kamchiliklarni aniqlash maqsadida ushbu ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida so'rovnoma tashkil etildi.

Shu jihatdan Oliy ta'limni bundan tashqari, masofaviy ta'lim sifati va undagi kamchiliklarni aniqlash maqsadida ushbu ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida so'rovnoma tashkil etildi. So'rovnomada ishtirok etgan 2610 nafar talabaning fikr-mulohazalari o'rganildi talablar, masofaviy ta'limga talabalarni qabul qilish va o'quv jarayonini tashkil qilish, masofaviy ta'lim sifati monitoringi tartibi belgilb berildi.

Masofaviy ta'lim turlaridan biri bo'lgan Massive Open Online Courses (MOOC) keng ko'lamli ochiq onlayn ta'lim shaklidir. Unda o'quv materiallari va darslar Internet orqali taqdim etiladi, bu o'quvchilarga o'quv materiallarini an'anaviy sinflardan tashqarida o'rganish, o'qituvchilar va boshqa talabalar bilan virtual muhitda muloqot qilish imkonini beradi. Masofaviy ta'lim video ma'ruzalar, interaktiv topshiriqlar, munozarali forumlar, onlayn testlar va boshqa turli formatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu ta'lim shakli, avvalo, jamiyatning quyi qatlamini ziyoli qilishda salmoqli rolь o'ynashini e'tirof etish lozim. Bunda talabalar ta'lim olish vaqtlarini o'zlari belgilashadi va bilim olishga ko'proq vaqt ajratishadi. Dunyo bo'ylab ochiq onlayn ta'lim tarqatishda Coursera va EdX

ta'lim platformalari assosiy hisoblanadi. Courseraga2012 yilda asos solingan bo'lib, ushbu platforma 2015 yilda 1005 ta dastur va 117 ta universitet bilan aloqa o'rnatishga ulgurdi.12,3 million talaba mazkur platformadan foydalandi. Coursera hayratlanarli darajada o'sishni 2014 — 2015 yillar oralig'ida ko'rsatdi. Bir yil ichida ta'lim oluvchilar soni 60% ga oshgani 6 buni tasdiqlab turibdi. 2021 yilga kelib Coursera 5400 dan ziyod ta'lim dasturlarini taqdim etadi va 2023 da platforma foydalanuvchilari 100 milliondan oshib ketdi.

Bu ta'lim shakli, avvalo, jamiyatning quyi qatlamini ziyoli qilishda salmoqli rol o'ynashini Bugungi kunda masofaviy ta'lim ta'lim xizmatlari bozorida muhim hisoblanadi.

O'zining qulayligi va kam xarajat ekanligi bilan bu ta'lim shaklining ulushi kundan-kunga ortib bormoqda. Yuqorida keltirilgan ochiq onlayn ta'lim platformalari ko'rsatgan o'sish kabi ma'sofaviy ta'limga bo'lgan talab ham oshmoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi masofaviy ta'limga ham ta'sir etmay qolmadi. Ta'lim texnologiyalarini joriy qilish va ularni rivojlantirish orqali masofaviy ta'lim rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shildi.

Ammo sohani rivojlantirishda ayrim to’siqlar yo’q emas. Tshkiliy masala va online ta’lim tizimini tashkil etish to’g’risidagi talabalerning fikrlari o’rganilganida

1515 nafar (63%)i platforma bilan bog'lanishdagi texnik uzilishlarni masofaviy ta'limdagi asosiy muammo sifatida belgilagan bo'lsa, 644 nafar (27%) talaba esa platformadan foydalanish noqulay deb hisoblagan. 593 nafar (24%) talaba jonli muloqotning yetishmasligini asosiy muammo sifatida keltirgan.

Talabalarga masofaviy ta'lim platformasi haqida atroflicha ma'lumot berilmasdan o'qish jarayoni boshlangan. Bu, o'z navbatida, talabalar o'rtasida ko'plab tushunmovchiliklar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda;

Masofaviy ta'lim shaklida ko'plab dars soatlari talabalarning ish vaqtiga to'g'ri kelib qolayotgani ular uchun qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Masofaviy ta'lim ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish shakli ekanligini inobatga olsak, dars soatlari vaqtini talabalarning ish vaqti bilan muvofiqlashtirishga zarurat tug'ilayotgani ma'lum bo'ladi; 16  ko'plab platformalarda dars mashg'ulotlarini interaktiv shakllarda olib borishning imkoni yo'q.

Masofaviy ta'lim video ma'ruzalar, interaktiv topshiriqlar, munozarali forumlar, onlayn testlar va boshqa turli formatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu ta'lim shakli, avvalo, jamiyatning quyi qatlamini ziyoli qilishda salmoqli rol o'ynashini Bugungi kunda masofaviy ta'lim ta'lim xizmatlari bozorida muhim hisoblanadi. O'zining qulayligi va kam xarajat ekanligi bilan bu ta'lim shaklining ulushi kundan-kunga ortib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan ochiq onlayn ta'lim platformalari ko'rsatgan o'sish kabi ma'sofaviy ta'limga bo'lgan talab ham oshmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi masofaviy ta'limga ham ta'sir etmay qolmadi. Ta'lim texnologiyalarini joriy qilish va ularni rivojlantirish orqali

masofaviy ta'lim rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shildi.

An'anaviy ta'limdan ustunligi uchun yanada oshirish uchun bizning fikrimizcha,

- Ishdan ajralmagan holda o'qish qulayligi uchunta'lim oluvchi mijozni vaqtini hisobga olgan holda belgilash
- Axborot-kutubxona markazlarining elektron adabiyot fondini ko'pytirish
- Professor-o'qituvchilarni masofaviy o'qitish bo'yicha malakasini oshirish
- Platformadagi o'quv materiallarining sifatini oshirish lozim
- Darslarning yuqori malakali professoro'qituvchilar tomonidan olib borilishini ko'paytirish kerak

Shunday holatlarni kuzatishingiz mumkinki ayrim OTMlarda masofaviy ta'limni tashkil etishda talabalr soni chegaralnishi kerak bo'lgan holatlarga e'tiborsizlik bilan qaralmoqda o'rnatilgan mezonlarga amal qilinmslik oqibatida talabalr bilan muloqot qilish imkoniyati cheklanmoqda. Bunday tartibsizlikka yo' qo'yilmasligi lozim.

**XULOSA**

Mustaqil ta'lim talabalarga o'z qiziqishlarini chuqurroq o'rganish va kelajakda o'z iste'dodlarini qanday va qaerga yo'naltirishlari to'g'risida muhim qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

Mustaqil ta'lim o'z-o'zini o'rganish hamda mustaqil ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun foydalidir, shuningdek, insonga mustaqil bo'lishga imkon beradi.

Mustaqil tadqiqotlar talabalarga o'z qiziqishlarini chuqurroq o'rganish va kelajakda o'z iste'dodlarini qanday va qaerga yo'naltirishlari to'g'risida muhim qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

Qanday ta'lim turi bo'lishidan qat'iy nazar yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlashga o'rgatish, insonparvarlik ruhini singdira olish oliy ta'lim muassasining asosiy maqsadlaridan biriga aylanmog'i kerak. Masofaviy ta'limning rivojlanishda har birimiz o'zimizning hissamizni qo'shishga ma'sul ekanligini anlashimiz lozim deb hisoblayman.

**Adabiyot ro'yxati:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qarori "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" gi Nizomi
2. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
3. Dewey, J. (1938). Experience and Education.
4. Darling-Hammond, L. (2000). Teacher Quality and Student Achievement: A

Review of State Policy Evidence.

5. Freire, P. (1970). Pedagogy of the Oppressed.
6. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and Classroom Learning.
7. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement.
8. Abdurazakov, A. M. (2015). O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsiyalar.
9. Tursunov, M. A. (2020). Loyihaviy ta’lim metodlari.
10. Sayfiddinov, A. (2021). Masofaviy ta’lim: imkoniyatlar va cheklovlar.
11. Musayeva, S. I. (2024). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF INTERACTIVE METHODS INTRODUCING THE CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING) APPROACH. World Scientific Research Journal, 32(1), 217-219.
12. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararo rivojlantirish.
13. Khamraev, I. (2019). O'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.